XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 3-mart VII-6-18-7-103-K/25 Samarqand tumani

Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Samarqand tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-90-126-7-103-K/23-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 143 va 148-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida”gi PF-108-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida va bu boradagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosarining 2025-yil 29-yanvardagi 02/511-sonli bildirgisi, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 29-yanvardagi 38/65-sonli xulosasiga asosan, xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi o‘rinbosari Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Samarqand tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-90-126-7-103-K/23-sonli qaroriga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Quyidagidalar:

xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Samarqand tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-90-126-7-103-K/23-sonli qarori 1-ilovasiga 1-ilovaga muvofiq;

xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining 2023-yil 30-dekabrdagi “Samarqand viloyati Samarqand tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetni tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-90-126-7-103-K/23-sonli qarori 2-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Samarqand tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ijrosi jarayonida bir byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

4. Samarqand tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (F.Misirov) tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi xarajatlari rejalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

Shuningdek, tuman mahalliy byudjet rejasiga ta’sir etuvchi hukumat qarorlari bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishni ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi Z.Zaynetdinov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyev zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi  SHARIPOV BAXTIYOR MURODKULOVICH

Xalq deputatlari Samarqand tumani
Kengashining
2025-yil 3-martdagi
VII-6-18-7-103-K/25 -son qaroriga
1-ilova

2024 yil uchun Samarqand tumani mahalliy byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**147 398 790,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	35 533 400,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	11 896 500,0
3	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	2 015 800,0
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 290 280,0
5	Yuridik shaxslar yer solig‘i	10 550 400,0
6	Aylanmadan olinadigan soliq	20 080 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	21 351 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	25 207 000,0
9	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 216 000,0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	7 019 052,0
11	Norudaqurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 310 000,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	103 658,0
13	Yig‘imlar	825 700,0

Xalq deputatlari Samarqand tumani
Kengashining
2025-yil 3-martdagi
VII-6-18-7-103-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun Samarqand tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**283 905 366**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	59 937 732
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	120 585 775
3.	Madaniyat bo‘limi	5 578 859
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	20 362 149
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 186 723
6.	Irrigatsiya bo‘limi	1 717 740
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 098 380
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	7 273 257
9.	Soliq inspeksiyasi	5 911 745
10.	Tuman hokimligi	57 253 007

Xalq deputatlari Samarqand tumani
Kengashining
2025-yil 3-martdagi
VII-6-18-7-103-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Samarqand tuman mahalliy byudjetining 2024 yilgi ijrosi jarayonida bir hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchi uchun ajratilgan byudjet mablag‘larini boshqa hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchiga o‘tkazish bo‘yicha o‘zgartirishlar

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Ko‘payishga	Kamayishga
Xarajatlar miqdori, Jami		**1 889 051**	**-1 889 051**
1.	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	0	-409 311
2.	Sog‘liqni saqlash bo‘limi	777 591	0
3.	Madaniyat bo‘limi	86 905	0
4.	Yoshlar siyosati va sport bo‘limi	138 852	0
5.	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	284 130	0
6.	Irrigatsiya bo‘limi	0	-64 000
7.	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	420 937	0
8.	Kambag‘alikkni qisqartirish va banklik bo‘limi	180 636	0
9.	Soliq inspeksiyasi	0	-665 944
10.	Tuman hokimligi	0	-749 796